

Oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar klinik ordinaturasiga kirish test sinovlarida **AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA** fanidan foydalaniladigan test varianti tafsiloti

1. Test variantining qo'llanish maqsadi:

Akusherlik va ginekologiya fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlariga kirish test sinovlarida oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda Akusherlik va ginekologiya faniga oid o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2009-yil 18-dekabrda VMQ-319-son qarori bilan tasdiqlangan "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risida Nizom";

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida"gi 2024-yil 17-iyuldagi 238-son buyrug'i;

Akusherlik va ginekologiya faniga oid amaldagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.

3. Akusherlik va ginekologiya fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi:

Akusherlik va ginekologiya fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmunining tarkibi

Kodi	Tekshiriladigan fan mazmunining tarkibi
1.1	Sogʻlom ayolda homiladorlikni olib borish. Antenatal parvarish milliy standartlari.
1.2	Fiziologik tugʻruqni olib borish. Fiziologik tugʻruqda shoshilinch yordam. Fiziologik chilla davrini olib borish.
1.3	Muddatidan oldingi tugʻruqlar xavfi. Muddatidan oʻtgan homiladorlik. Tashxislash. Olib borish. Homiladorlik va tugʻruqda homila holatini baholash. Homilaning oʻsishining chegaralanish sindromi. Homilaning noaniq/qoniqarsiz holati.
1.4	Homiladorlik va tugʻruq davrida gipertenziv buzilishlar. (Surunkali gipertenziya, gestasion gipertenziya, preeklampsiya va eklampsiya). Tashxislash. Qiyosiy tashxislash. Profilaktika. Ogʻir preeklampsiya va eklampsiyada shoshilinch yordami.
1.5	Qandli diabet va homiladorlik. Jigar kasalligi va homiladorlik. Tekshirish. Qiyosiy tashxislash. Olib borish va taktikas.
1.6	Nafas olish qiyinlashishi. Kamqonlik, yurak-qon tomir kasalliklari va homiladorlik. Oʻtkir respirator infeksiya, bronxial astma va homiladorlik davrida zotiljam). Tashxislash. Olib borish.
1.7	OIV/OITS. Onadan bolaga transmissiyaning oldini olish. OIV boʻyicha testdan oldin va keyingi maslahat. OIV-pozitiv homiladorlarda antenatal, antiretrovirus preparatlarini buyurish. Tugʻdirish usullari (elektiv kesar kesish), tugʻruqni bexatar olib borish. Chaqaloqni bexatar emizish amaliyoti. OIV-pozitiv onalardan tugʻilgan chaqaloqlarga maxsus parvarish. Tugʻruqdan keyingi asoratlar oldini olish. OIV bilan infisirlangan homiladorlarni va tuqqan ayollarni dispanserizasiya va reabilitasiya tamoyillari. Qon orqali yuquvchi infeksiya bilan zararlanishda professional havf va uni kamaytirish usullari.
1.8	Homiladorlik, tugʻruq va chilla davrida infeksiya. Infeksiyaning oldini olishda skrining dastur. Standart/universal chora-tadbirlari. Taktika.
1.9	Homiladorlik, tugruk va chilla davrida yuqori harorat. Siydik trakti infeksiyalari (tsistit, oʻtkir pielonefrit). Chilla davri septik kasalliklari. Tashxislash. Olib borish.
1.10	Reproduktiv salomatlik. Maslahatlash asoslari. Reprodukativ salomatligini saqlash choralari. Oilani rejalashtirishda Jahon Sogʻliqni saqlash tashkiloti tamoyillari. Zamonaviy kontratsepsiya usullari.
1.11	Gormonal kontratsepsiya. Aralash va sof progestinli kontratsepsiya. Gormonal kontratsepsiyaning taʼsir mexanizmi, samaradorligi, tarqalganligi, koʻrsatma, aralash oral kontratseptivlar va sof progestinli kontratseptivlarni qoʻllashdagi ehtiyotkorlik, nojuya taʼsirlarining oldini olish.
1.12	Bachadon ichi vositasi. Bachadon ichi vositasini kiritish va olib tashlash.
1.13	Jinsiy yoʻllar orqali yuquvchi infeksiyalar belgilari. Toʻsiq usuli va spermidlarning taʼsir mexanizmi, turi, afzalliklari va kamchiliklari. Toʻsiq usulini qoʻllash texnikasi.
1.14	Ixtiyoriy jarrohlik sterilizasiya. Tabiiy usullari. Laktasion amenoreya usuli. Koʻrsatma. Qarshi koʻrsatma. Afzalliklari va kamchiliklari, havfli holatlar. Aholining turli guruhlarida kontratsepsiya usullari: abort, tugʻruqdan keyingi, koʻkrak bilan emizuvchilarda va emizmaydiganlarda, oʻsmirlarda, 35 yoshdan oshganlarda.
1.15	Homiladorlikning erta muddatlarida (22 xaftasigacha) qindan qon ketishi. Abort va uning asoratlari. Tashxislash. Olib borish. Oʻz-oʻzidan sodir boʻlgan abortlarda shoshilinch yordam. Tibbiy abortga koʻrsatmalar. Medikamentoza va artificial abortlar.
1.16	Bachadondan anomal qon ketishi. Bachadon miomasi. Endometrioz. Tashxislash. Qiyosiy tashxislash va taktika. Ginekologik va akusherlik operasiyalaridan soʻnggi ayollarni sogʻlamlashtirish. Dispanserizasiya.
1.17	Qindan ajralma kelish sindromi (ayollar jinsiy aʼzolari nospesifik va spesifik yalligʻlanish kasalliklari). Tashxislash. Tekshirish. Qiyosiy tashxislash va taktika.

1.18	Sut bezining xavfsiz o'smalari. Vulva, qin, bachadon bo'yni va bachadon tanasining neoplaziyalari. Bachadon bo'yini va tanasining rak oldi va fon kasalliklari. Tashxislash. Qiyosiy tashxislash va taktika.
1.19	Bepusht nikoh. Tashxislash. Tekshirish. Qiyosiy tashxislash va taktika.
1.20	Homiladorlikning 22 xaftadan so'nggi muddatda, tug'ruqda va chilla davrida qon ketishi. Tashxislash. Olib borish. Shoshilinch birlamchi baholash. Birinchi vrachlik yordami. Homiladorni tug'ruqxonaga o'z vaqtida va havfsiz yuborish.
1.21	Ginekologiyada o'tkir qorin: bachadondan tashqari homiladorlik, tuxumdon apopleksiyasi, tuxumdon kistomasi oyoqchasining buralib qolishi. Tashxislash. Olib borish. Shoshilinch choralar. O'z vaqtida va xavfsiz stasionarga yuborish.

5. Akusherlik va ginekologiya faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1	quyi kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> - dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; - terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi; - o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; - dasturning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; - amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetentsiyalarni egallashi, ammo biroz kamchiliklar bilan; - amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi; - dastuda tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; - o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi.
2	yuqori kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> - dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; - terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; - muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi; - tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi; - nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi; - amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetentsiyalarni to'liq egallashi; - amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi; - modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi; - dastur bo'yicha nazariyalar, kontseptsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi.

6. Akusherlik va ginekologiya fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar

Akusherlik va ginekologiya faniga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta'lim standartlari, Akusherlik va ginekologiya fani ta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab ko'rsatilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan		Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar	Kodi
Akusherlik va ginekologiya	Sog'lom ayolda homiladorlikni olib borish. Antenatal parvarish milliy standartlari.	Homilador organizmida sodir bo'ladigan fiziologik o'zgarishlarni; antenatal parvarishlar tamoillarini;(ANP), reproduktiv salomatlik asoslari va oilani rejalashtirish tamoillarini; homiladorlikni aniqlash; antenatal parvarish o'tkazish; xatar guruhiga kiruvchi homiladorni aniqlash; laborator va instrumental tekshirish usullarini qo'llagan holda homiladorlarni klinik tekshirish; laborator va instrumental tekshirish usullari natijalarini taxlil qilish, tugruq oldi tayyorgarligi uchun homiladorlarni gospitalizasiya qilish kriteriyalarini aniqlash; ambulator-poliklinika va uy sharoitida homiladorlarni kuzatish, homiladorlar kartasini to'ldirish.	1.1.1
	Fiziologik tug'ruqni olib borish. Fiziologik tug'ruqda shoshilinch yordam. Fiziologik chilla davrini olib borish.	Fiziologik tug'ruq faoliyatining rivojlanish mexanizmi; tug'ruq yo'llarining va homilaturuk ob'ekti sifatida parametrlari; homilani bukilgan xolatidaga tug'ruq biomexanizmi; tug'ruq davrlarini aniqlashni tug'ruq davrlariga qarab shoshilinch yordam ko'rsatishni homila tug'ilishida oraliqni himoyalashni, homilaning holatini baholash; chaqaloqqa birlamchi ishlov berishni, tug'ruqning 3 davrini faol olib borishni, Tug'ruqning davriga qab ayolni o'z vaqtida va to'g'ri stasionarga transportirovka qilishni, homiladorlik va chilla davrida tugri ovkatlanish va gigienaga rioya qilish, Homiladrlarni ambulator olib borish mezonlar	1.2.1
	Muddatidan oldingi tug'ruqlar xavfi. Muddatidan o'tgan homiladorlik. Tashxislash. Olib borish. Homiladorlik va tug'ruqda homila holatini baholash.	Homiladorlikning muddatidan oldin va utib to'xtashi, homila rivojlanishdan orkada kolishi (HROK) va homilani noaniq/konikarsiz xolati xatar omillarini ochib berishi Homiladorlikning muddatidan oldin va utib to'xtashi, homila rivojlanishdan orkada kolishi (HROK) va homilani	1.3.1

	<p>Homilaning o'sishining chegaralanish sindromi. Homilaning noaniq/qoniqarsiz holati.</p>	<p>noaniq/konikarsiz xolati klinik kechishini; Homiladorligi muddatidan oldin va utib to'xtashi, homila rivojlanishdan orkada kolishi (HROK) va homilani noaniq/konikarsiz xolatida laborator va instrumental usullarni qo'llab klinik tekshiruvlar o'tkazishni; Klinik tashxisni shakllantirish va asoslab berishni; Homilaning holatini baxolash (utti, KTG, doplerometriya natijalari bo'yicha); Homiladorlikning muddatidan oldin va utib to'xtashida akusherlik amaliyotida qo'llaniladigan davo printsiplarini; • Erta va kechikkan tug'ruq o'tkazgan ayollarda tug'ruqdan keyingi poststasionar reabilitasiya o'tkazishni;</p>	
	<p>Homiladorlik va tug'ruq davrida gipertenziv buzilishlar. (Surunkali gipertenziya, gestasion gipertenziya, preeklampsiya va eklampsiya). Tashxislash. Qiyosiy tashxislash. Profilaktika. Og'ir preeklampsiya va eklampsiyada shoshilinch yordami.</p>	<p>Homiladorlik va tug'ruqdagi gipertenziv xolatlar tasnifini; Tasnif asosida tashxisni asoslab quyish; Og'ir preeklampsiya va eklampsiya xolatlarida shoshilinch yordam ko'rsatishni bosqichlarini; Tug'ruqdan keyingi davrida reabilitasiya o'tkazish. Gipertenziv buzilishlar kuzatilgan ayol xolatini baholash; Og'ir preeklampsiya va eklampsiya xolatlarida bosqichma bosqich shoshilinch yordam kursatish; Homila bachadon ichi xolatini baxolash (BTB aniklash va homila yurak urishini eshitish) Homiladorlikni olib borish taktikasini ishlab chiqish; Tug'ruqdan keyingi davrda kontratsepsiya usullarini qo'llagan xolda maslaxatlash o'tkazish. Isbotlangan tibbiyot saytlarida ma'lumotlarni to'g'ri izlash va tanlash</p>	<p>1.4.1</p>
	<p>Qandli diabet va homiladorlik. Jigar kasalligi va homiladorlik. Tekshirish. Qiyosiy tashxislash. Olib borish va taktikas.</p>	<p>Qandli diabetda homiladorlikning klinik kechishi xususiyatlarini; Virusli hepatitda homiladorlikning klinik kechishi xususiyatlarini; Qandli diabet va jigar kasalliklari bo'lgan homiladorlarning asoratlarini; Dispanser kuzatish printsiplarini; Ushbu kasalliklarda kontratsepsiya usullarini. Qandli diabetda xavfli guruhni aniqlash; Jigar kasalliklarida xavfli guruhni aniqlash; Laborator va instrumental usullarni qo'llagan holda klinik tekshiruvlarni o'tkazishni; Klinik tashhisni shakllantirish va asoslashni;</p>	<p>1.5.1</p>

		Ushbu kasalliklarda gospitalizasiyalash mezonlarini aniqlash;	
	Nafas olish qiyinlashishi. Kamqonlik, yurak-qon tomir kasalliklari va homiladorlik. O'tkir respirator infeksiya, bronxial astma va homiladorlik davrida zotiljam). Tashxislash. Olib borish.	<p>Kamqonlik va YuQT tizimi kasalliklari bo'lgan homiladorlar organizmida bo'ladigan o'zgarishlar, klinikasi va homiladorlikining natijasi, homilaning holati haqida. Kamqonlik va YuQT tizimi kasalliklari bilan homiladorlarda ko'p kuzatiladigan akusherlik asoratlari.</p> <p>Kamqonlik va YuQT tizimi kasalliklari bo'lgan homiladorlarni ambulator va stasionar davolash mezonlari.</p> <p>Laborator va instrumental tekshirish usullarini qo'llagan holda kamqonlik va YuQT tizimi kasalliklari bo'lgan homiladorlarni klinik tekshirishdan o'tkazish. Klinik tashxisni qo'yish va asoslash/ Ambulator davolash samaradorligini baholash.</p> <p>Kamqonlik va YuQT tizimi kasalliklari bo'lgan homiladorlarning holatini baholash va keyingi taktikasini ishlab chiqish. Kamqonlik va YuQT tizimi kasalliklari bo'lgan homiladorlarni olib borishning kompleks yo'llarini ishlab chiqish.</p> <p>kamqonlik va YuQT tizimi kasalliklari bo'lgan homiladorlarni gospitalizasiya qilish mezonlarini aniqlash.</p> <p>Homilaning ona qornidagi holatini baholash (UTT, KTG).</p> <p>Kamqonlik va YuQT tizimi kasalliklari bo'lgan homiladorlarni laborator va instrumental tekshirish natijalarini tahlil qilish.</p>	1.6.1
	OIV/OITS. Onadan bolaga transmissiyaning oldini olish. OIV bo'yicha testdan oldin va keyingi maslahat. OIV-pozitiv homiladorlarda antenatal, antiretrovirus preparatlarini buyurish. Tug'dirish usullari (elektiv kesar kesish), tug'ruqni bexatar olib borish. Chaqaloqni bexatar emizish amaliyoti. OIV-pozitiv onalardan tug'ilgan	<p>OIV klinik kechishini.</p> <p>OIVni tashxislash usullari va uni tahlili qilishni</p> <p>Qon bilan infeksiyadan professional zararlanish xavfi va uni kamaytirish choralarini.</p> <p>OIV/OITSni rivojlaniishda xavfli omil guruxlarini ishlab chikish va profilaktik chora tadbirlarni olib borishni.</p> <p>OIV bilan kasallanganlardan anamnez yig'ish va ularni kurasiya qilishni</p> <p>OIV bilan kasallanganlardan anamnez yig'ish va ularni kurasiya qilishni.</p> <p>Postkontakt profilaktikani</p>	1.7.1

	<p>chaqaloqlarga maxsus parvarish. Tugʻruqdan keyingi asoratlar oldini olish. OIV bilan infisirlangan homiladorlarni va tuqqan ayollarni dispanserizasiya va reabilitasiya tamoyillari. Qon orqali yuquvchi infeksiya bilan zararlanishda professional havf va uni kamaytirish usullari.</p>		
	<p>Homiladorlik, tugʻruq va chilla davrida infeksiya. Infeksiyaning oldini olishda skrining dastur. Standart/universal chora-tadbirlari. Taktika.</p>	<p>Hamorlikni olib Raven taccasine majmuasi. Xavf guruhi kiruvchi homilador aellarni aniq. Hozirgi vaqtda barcha zarur davolash usullari laboratoriya va instrumental ofis uskunalarida ishlamoqda. Laboratoriya va instrumental tekstura metodikalarining natialarini talqin qilish. IOO ni asosiy printsiplari, oldini olish standart chora-tadbirlarini (barcha bemorlar va tibbiy xodimlar qoʻllaniladi) Qoʻl yuvish va antiseptik eritmalarni tayyorlash qoidalarini, individual ximoya vositalarini toʻgʻri va amaliyotdai qachon va qanday qoʻllashni Infeksiya yuqish yoʻllariga asoslangan ehtiyot choralarini Xirurgik ishlov berish tabdirlarini Yuqori xavf sohalarida bexatar ishlash usularini Qoʻlni yuvish Qoʻlkoplarni toʻgʻri ishlatish Individual ximoya vositasidan qoʻllash Qoʻllargi ishlov berish uchun antiseptik vosita tayerlash Qoʻlga xirurgik ishlov berishni Ishlatilgan shprislarni yoʻk qilishni Asboblarga ishlov berish bosqichlarini</p>	<p>1.8.1</p>
	<p>Homiladorlik, tugruk va chilla davrida yuqori harorat. Siydik trakti infeksiyalari (tsistit, oʻtkir pielonefrit). Chilla davri septik kasalliklari. Tashxislash. Olib borish.</p>	<p>Yiringli-septik kasalliklari etiopatogenezi, klinikasi aytib berish. Isitmali xolatga bulgan xavf guruxlarini aniklash. Yiringli-septik kasalliklari utkazgan aellarda reproduktiv funktsiya asoratlarini aytib berish. Chilla davr yiringli septik kasalliklari tashxislash va kiesiy tashxislashning mezonlari. Chilla davr yiringli septik kasalliklariga xavf guruxlarini olib borish taktikasini kursatish.</p>	<p>1.9.1</p>

		Tugruqdan keyingi isitma utkazgan aellarni poststasionar davolash mezonlari. Yiringli-septik kasalliklarini davolashda kullaniladigan preparatlarni chakalokka va emizish jaraeniga ta'siri.	
	Reproduktiv salomatlik. Maslahatlash asoslari. Reproduktiv salomatligini saqlash choralari. Oilani rejalashtirishda Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tamoyillari. Zamonaviy kontratsepsiya usullari.	Reproduktiv salomatlik xaqida tushuncha Onalar o'limiga sabab bo'luvchi faktorlar Oilani rejalashtirish printsiplari O'zbekiston Respublikasining ona va bola sog'lig'ini muxofaza qilishi xaqidagi Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i. Kontratsepsiya turlari bo'yicha maslaxatlashni o'tkazish. Reproduktiv salomatlikni muxofaza qilishda sanitar oqartuv ishlarini va maslaxatlashni olib borish; Ona va bola sog'lig'ini muxofaza qilish chora tadbirlarini olib borish; Xalqaro federasiyasining birinchi yig'ilishi (XFBY) bo'yicha maslaxatlash.	1.10.1
	Gormonal kontratsepsiya. Aralash va sof progestinli kontratsepsiya. Gormonal kontratsepsiyaning ta'sir mexanizmi, samaradorligi, tarqalganligi, ko'rsatma, aralash oral kontratseptivlar va sof progestinli kontratseptivlarni qo'llashdagi ehtiyotkorlik, nojuya ta'sirlarining oldini olish.	Kombinirlangan (GK) bo'yicha maslahat berish GK qo'llashning asosiy printsiplari GK larni afzallik va kamchiliklari Gklarning nojo'ya ta'sirlari Kombinirlagan kontratseptivlarni nokontratseptiv ta'siri	1.11.1
	Bachadon ichi vositasi. Bachadon ichi vositasini kiritish va olib tashlash.	BIV buyicha mijozlarga maslahat berishni o'rgatish Bivning mavjud barcha turlari va ta'sir mexanizmi haqida tushuncha berish. Bivning afzalliklari va kamchiliklarini bilish BIVni qo'yish va olishga ko'rsatmalar BIVni qo'llayotgan mijozlarga qayta maslahat berish, nojo'ya ta'sirlari va asoratlari yuzaga kelganda, yordam ko'rsatish.	1.12.1
	Jinsiy yo'llar orqali yuquvchi infeksiyalar belgilari. To'siq usuli va spermisidlarning ta'sir mexanizmi, turi, afzalliklari va	Ayol jinsiy a'zolarining anatomiyasi va fiziologiyasini Jinsiy yo'llar orqali yuqadigan infeksiyalarni sindromal tashxislash va davolash Kontratsepsiyaning to'siq usullari bo'yicha maslahatlash asoslari	1.13.1

	kamchiliklari. To‘siq usulini qo‘llash texnikasi.	Anamnez yig‘ish; Umumiy ko‘rik; Ginekologik ko‘rik	
	Ixtiyoriy jarrohlik sterilizasiya. Tabiiy usullari. Laktasion amenoreya usuli. Ko‘rsatma. Qarshi ko‘rsatma. Afzalliklari va kamchiliklari, havfli holatlar. Aholining turli guruhlarida kontratsepsiya usullari: abort, tug‘ruqdan keyingi, ko‘krak bilan emizuvchilarda va emizmaydiganlarda, o‘smirlarda, 35 yoshdan oshganlarda.	Ayol organizmidagi fiziologik uzgarishlar. Kontratsepsiyaning asosiy tur-lari va ularning ta‘sir mexanizmi. Kontratsepsiyaning turli xil-larini kullashdagi asoratlar; Barcha kontratsepsiya vositalari buyicha maslaxatashni; Anamnez yig‘ish; Umumiy ko‘rik; Ginekologik ko‘rik	1.14.1
	Homiladorlikning erta muddatlarida (22 xaftasigacha) qindan qon ketishi. Abort va uning asoratlari. Tashxislash. Olib borish. O‘z-o‘zidan sodir bo‘lgan abortlarda shoshilinch yordam. Tibbiy abortga ko‘rsatmalar. Medikamentoz va artificial abortlar.	o‘z - o‘zidan abort bosqichlarining kli-nik kechishini; o‘z - o‘zidan abortga tashhis qo‘yish usullarini; differentsial tashhis qo‘yishni; abortlarni ambulator va stasionar davolash mezonlarini; yuqorida ko‘rsatilgan holatlarda tib-biy yordam ko‘rsatish tadbirlarining ketma-ketligini; homiladorlikni vaqtidan ilgari to‘xtatishning zamonaviy usullarini; sun‘iy abortning extimoliy aso-ratlarini.	1.15.1
	Bachadon miomasi. Endometrioz. Tashxislash. Takkoslama tashxislash va taktika. Olib borish.	Ayollar jinsiy a‘zolarining anatomiyasi va fiziologiyasini aytib beradilar. Bachadon miomasining va endometriozning etiopatogenezi va klinikasini tartibli ravishda ochib beradilar. Bachadon miomasini va endometriozni tashhislash usullari aytib beradilar. Bachadon miomasi va endometriozni bor ayollarni konservativ va xirurgik davolash mezonlari bilimlarini shakllantiradilar. Bachadon miomasi va endometriozni bo‘yicha jarrohlik amaliyotidan keyingi rehabilitasiya choralarini tartibli ravishda ochib beradilar.	1.16.1
	Qindan ajralma kelish sindromi (ayollar jinsiy a‘zolari nospesifik va spesifik yallig‘lanish kasalliklari). Tashxislash.	Ayollar jinsiy a‘zolarining anatomiya va fiziologiyasini Kichik chanoq a‘zolarining yalliglanish kasalliklarining etiopatogenezi Bu patologiyali aellarni ambulator va stasionardavolash kriteriyalari	1.17.1

	Tekshirish. Qiyosiy tashxislash va taktika.		
	Sut bezining xavfsiz o'smalari. Vulva, qin, bachadon bo'yni va bachadon tanasining neoplaziyalari. Bachadon bo'yni va tanasining rak oldi va fon kasalliklari. Tashxislash. Qiyosiy tashxislash va taktika.	Sut bezini yaxshi sifatli o'smalari, bachadon bo'yni va endometriyning fon va rak oldi kasalliklari rivojlanishini profilaktikasi - Sut bezini yaxshi sifatli o'smalari, bachadon bo'yni va endometriyning fon va rak oldi kasalliklari diagnostikasini ketma-ketligini belgilash - differentsial diagnostika kriteriyalari - dispaserizasiya printsiplari kursatish - davolash printsiplari, samaradorligini baxolash mezonlari, prognozlash va extimol asoratlarni bilish - xirurgik davolashdan keyingi reabilitasiya usullari -yondosh mutaxassislarni jalb etish mezonlari	1.18.1
	Bepusht nikoh. Tashxislash. Tekshirish. Qiyosiy tashxislash va taktika.	ayollar va erkaklar jinsiy a'zolarining anatomiyasi va fiziologiyasini tushuntirib berish; er-xotinlarda bepushtlik rivojlanishining etiopatogenezi va klinik belgilarini sanab berish; bepushtlikdan aziyat chekayotgan juftlikni to'liq tekshiruvdan o'tkazish va davolash uchun jalb etiluvchi zarur mutaxassislarning maslahatlari, tashxislash usullari mezonlarini aniklash; davolash tamoyillari, samaradorligini baholash mezonlari, prognoz va kelib chiqishi ehtimoli bo'lgan asoratlarni aytib berish; nikohda bepushtlikning oldini olish yo'llarini tushuntirib berish.	1.19.1
	Homiladorlikning 22 xaftadan so'nggi muddatda, tug'ruqda va chilla davrida qon ketishi. Tashxislash. Olib borish. Shoshilinch birlamchi baholash. Birinchi vrachlik yordami. Homiladorni tug'ruqxonaga o'z vaqtida va havfsiz yuborish.	Ketma ketlikda homiladorlik oxirgi muddatlarida kon ketishni tashxis kilish mezonlari va davolashni ochib berish Homiladorlikning oxirgi muddatlarida qon ketganda differentsial tashxis o'tkazish Homiladorlikning oxirgi muddatlarida qon ketgan ayollarda klinik situasiya va umumiy xolatni ajratish, baxolash, taxlil qilish. Tashxis kuyish uchun mustakil algoritm tuzish. Zarur b o'lgan vaktlarda tez yordam ko'rsatish algoritmini ishlab chikadilarchilla davridagi akusherlik qon ketishining ta'rifi va xavf omillari; chilla davridagi akusherlik qon ketishining tasnifi va sabablari; chilla davridagi akusherlik qon ketishida shoshilinch yordam ko'rsatish asoslarini; chilla davridagi akusherlik qon ketishida	1.20.1

		konservativ va jarrohlik gemostaz usullari; chilla davridagi qon ketish hajmiga qarab u yoki bu aralashuvlarga ko'rsatmalar;	
	Ginekologiyada o'tkir qorin: bachadondan tashqari homiladorlik, tuxumdon apopleksiyasi, tuxumdon kistomasi oyoqchasining buralib qolishi. Tashxislash. Olib borish. Shoshilinch choralar. O'z vaqtida va xavfsiz stasionarga yuborish.	Ektopik homiladorlik, tuxumdon apopleksiyasi va tuxumdon kistomasi oyoqchalarini buralishiga jinsiy a'zolar jarohatlari bilan kelgan ayollarga to'g'ri tashhis qo'yish; shoshilinch yordam ko'rsatish va to'g'ri algoritm ta'sir tanlash, transportirovka qilish; Ektopik homiladorlik, tuxumdon apopleksiyasi, tuxumdon kistomasi oyoqchalarni buralishi va jinsiy a'zolar jarohatlarini va boshqa ginekologik xirurgik kasalliklarni differentsial tashhislashi. shoshilinch yordam va transportirovka usuli Operatsiyadan keyingi davrda reabilitatsiya chora tadbirlarni o'tqazish.	1.21.1

7. Foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Akusherlik. Darslik/Magzumova N.M. va hammualiflar.-2023. – 258var.
2. Ginekologik kasalliklar. E-Darslik/Magzumova N.M.-2023. – 213var.
3. ЎЗР ССВнинг 2021 йилдаги №273 сонли буйруғи “Акушерлик ва гинекология бўйича Миллий баённомалар”.
4. Национальное руководство по гинекологии/ под ред. В. Н. V.И. Кулакова, Г.М. Савелевой, И.В. Манухина-2009.-1088с.
5. Акушерство. Учебник. / Под редакцией В.Е. Радзинского и А.М. Фукса-М.: GOETAR-Media, 2016.- 1040с.
6. Гинекология. Учебник. / Под редакцией В.Е. Радзинского и А.М. Фукса-М.: GOETAR-Media, 2014.- 1000С.
7. Миома матки: Диагностика, Лечение и реабилитация/ клинические рекомендации по ведению больных. / под редакцией Л.В. Адамян. 2015.
8. Приказ МЗ № 500 от 13 ноября 2003г. «О реорганизации работы родильных комплексов (отделений) по повышению эффективности перинатальной помощи и профилактике внутрибольничных инфекций».
9. Приказ МЗ № 74 от 18 марта 2009 г. «О профилактике передачи ВИЧ инфекции от матери ребенку в учреждениях системы Министерства здравоохранения».
10. Приказ МЗ № 137 от 18 мая 2012г. «Об организации и обеспечения антенатального ухода и оказания медицинской помощи беременным в учреждениях первичной медико санитарной помощи”.
11. Comprehensive Gynecology ISBN: 978-0-323-32287-4 /Copyright © 2017 by Elsevier, Inc. All rights reserved.
12. Differential diagnosis in obstetrics and gynecology/ Second edition\Edited

by Tony Hollingworth Consultant in Obstetrics and Gynaecology Whipps Cross University Hospital Trust, London, UK/2017.

13. Te Linde's Operative Gynecology eleventh edition. Howard W. Janes John A. Rock/ 2014/-2328p.
14. DC DUTTA's textbook of gynecology including contraception/ Enlarged and Revised Reprint of Sixth Edition/ 2013.-703p.
15. DC DUTTA's textbook of obstetrics including Perinatology and contraception/ Enlarged and Revised Reprint of Sixth Edition/ 2013.-698p.
16. First aid for the obstetrics and gynecology clerkship. Third edition/ Matthew S. Kaufman, Jeane Simmons Holmes Priti P. Schachel, Latha G. Stead/ 2011.-417p.

***Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.